

Yusufxon Saydaliyev

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi
"Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrası dotsenti
E-mail: syusufxon@gmail.com*

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARDA MUSIQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar o'rtasida musiqiy madaniyatni rivojlantirishning dolzarb masalalari, istiqbollari va innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Mustaqillik davrida shakllangan madaniy siyosat, ta'lim tizimidagi islohotlar hamda yosh avlodning estetik dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan davlat dasturlari asosida musiqiy madaniyatni rivojlantirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, yoshlar, musiqiy madaniyat, estetik tarbiya, madaniy siyosat, innovatsion rivojlanish, raqamli texnologiyalar.*

PROSPECTS FOR DEVELOPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. *This article analyzes the current issues, prospects and innovative approaches to the development of musical culture among young people in the conditions of New Uzbekistan. The directions of developing musical culture based on the cultural policy formed during the period of independence, reforms in the education system, and state programs aimed at expanding the aesthetic outlook of the younger generation are scientifically highlighted.*

Keywords: *New Uzbekistan, youth, musical culture, aesthetic education, cultural policy, innovative development, digital technologies.*

Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda estetik tarbiyaga alohida e'tibor berilishi jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Yuqoridagi masalaning yechimini topishda musiqiy estetik tarbiyaning roli beqiyosdir. Estetik tarbiya masalasi ancha keng bo'lib, insonni jamiyatdagi

go'zalliklarni boricha sezish va idrok etishni o'rgatadi. Shu bilan birga, estetik faoliyat, voqelikni estetik kategorial qonun-qoidalarini asosida qobiliyatli shaxsni o'z tarbiyasiga oladi, bu rivojlanish insonning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatning vujudga kelishidan tashkil topgan uzoq davom etuvchi jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish inson ma'naviy kamolotida o'z o'rniga ega ekanligini ko'rsatib, biror kishining xohish-istagi tufayli bo'lmay, balki jamiyatdagi qonuniy ehtiyojlardan kelib chiqadigan zaruriyatdir. Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishga e'tibor kecha yoki yaqin o'rtada paydo bo'lgani yo'q. Uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim faylasuflari inson ma'naviy va jismoniy kamoloti masalalariga jiddiy e'tibor qaratishgan. Arastu, Navoiy, Rumi kabi mutafakkirlar ta'limotlarida ma'naviy kamolot komillikning muhim sharti sifatida ta'kidlab o'tilgan. Bugungi davrda ham insonni borliqdagi go'zallikka, nafosat olamiga yaqinlashtirish, ya'ni estetik tarbiya davlatimizning ijtimoiy rivojlantirish vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki estetik tarbiya ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga tegishlidir.

“Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi zamon talabidir. Chunki estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyo, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi [1, 102-b]. Estetik tarbiyaning oldida turgan vazifasi faqatgina go'zallikni tushunish va baho berishni o'rgatish bo'lmay, ijtimoiy hayotda amalga oshirish uchun faol ishtirok etishga xayrixohlik hissini tarbiyalashdir.

“Estetik tarbiya muammosi avvaldan jamoatchilik diqqat markazida bo'lib, so'nggi paytlarda bu to'g'risida juda ko'p fikrlar aytilgan. Ba'zilar estetik tarbiyaning asosiy vazifasi xalqda ijodiy faollikni tarbiyalash, deyishsa, boshqalar go'zallikni xunuklikdan farqlashni o'rgatish, uchinchilar yuksak ma'naviyat, rivojlangan estetik didni tarbiyalash deya ta'kidlashadi” [2, c-278]. Darhaqiqat, estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri estetik madaniyatni

yuksaltirishdan iborat. Estetik madaniyat tizimida alohida o'rin tutuvchi estetik did eng ziddiyatli, nozik, o'z o'rnida qiziqarli va dolzarb, shuningdek murakkab masalalardan biri hisoblaniladi. O'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan estetik madaniy did voqelikka, narsa yoki hodisani ko'rgan holatda beriladigan bahoda paydo bo'ladi. Birinchi marta ko'rib turgan san'at asari, mutolaa qilingan adabiyotga mushtariy yoshi, kasbi, ma'lumoti darajasiga ko'ra turli xil baho beradi. Ushbu jarayonning o'zi uning faqat alohida insongagina xos bo'lgan, jamiyat uchun ham muhim ekanligini, ya'ni "shaxsiy masala" emasligini ko'rsatib turibdi. Bu shunchaki "yoqadi yoki yoqmaydi" so'zlari bilan ifodalansa-da, bizning estetik dunyoqarashimiz didimiz, madaniyatimizni ko'rsatib beradi. Bizning tajribamiz qarashlarimizda paydo bo'ladi, biz yashayotgan jamiyat, davr qarashlari ham ma'lum ma'noda o'z-o'zidan namoyon bo'ladi.

Estetik madaniyat hissiyot hamda tafakkur birligi, shaxs o'zligini ifodalovchi, bir vaqtning o'zida ham uning, ham unga berilgan bahodir. Estetik madaniyat biz yashagan davr, biz ko'z ochgan vatan, biz eshitgan qo'shiq, biz qiziqib o'qiydigan kitob, gazeta va jurnallar kabi ma'naviy boyliklarni idrok etish jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. "Har bir inson o'z davlatining fuqarosi bo'lgani kabi, o'z davrining ham fuqarosidir va agar o'zing yashayotgan axloq va odatlar bilan o'sha doiradan chiqish mumkin bo'lmasa, unda o'z faoliyating, diding va ehtiyojlaringni tanlash" [3, c-253] mumkin.

Estetik madaniyat insonni o'rab turgan muhit orqali shakllanadi. Inson go'zallikni his qilib matbuot va go'zal buyumlar va narsalar olamida yashasa, matbuot g'oyaviy-estetik jihatdan yetuk badiiy asarlar bilan muloqotda bo'lsa, go'zallikdan zavqlanishni o'rganib boradi uni his etadi, uni yaratadi. Tuban muhit esa aksincha, inson didini ham tubanlashtirib qo'yadi. Badiiy did bilan estetik did orasida farq bo'lsa-da, doimo bir-birini to'ldirib turadi va badiiy did estetik didga asoslanadi. Turli janrlardagi badiiy adabiyotdagi namunalar, ya'ni qissalar, mumtoz asarlar hikoyalar, ulardagi badiiy obrazlar, tasviriyy vositalar jurnalxonning his-tuyg'ulariga o'z ta'sir kuchini ko'rsatadi, shu bilan birga,

badiiy qadriyatlarni, an'analarni o'zlashtirishga yordam berishi natijasida estetik tafakkurga zavq-shavq bag'ishlashida ko'zgudek namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ma'naviyatimizni yuksaltirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Har qanday mustaqil davlatning qudrati o'zining yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan buyukdir. Olim Abdulla "She'r estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, subyektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go'zallikka munosabatini uchratamiz" [1, 92-b]. Ushbu fikridan ham anglashimiz mumkinki, estetik did axloqiy va estetik madaniyat bilan bevosita bog'liq. Zero, u ham axloqiy ham aqliy, shu bilan birga, hissiy tarbiya bilan uyg'unlashgan umumiylikdan iborat. Chunonchi, estetik did go'zallik yoki xunuklik to'g'risida hukm chiqaruvchi qobiliyat bo'lib, shu o'rinda estetik baholash darajasidir. Insonlarning madaniylik toifasi bilan bog'liq bo'lgan jamiyat taraqqiyotida kishilarning ko'pchiligini yuksak estetik didga ega bo'lganligi natijasida uning axloqiy-estetik va madaniy jihatdan taraqqiy etishida muhim o'rin egallaydi.

G'arb dunyosini faqat qora bo'yoqlarda ko'rsatish ham adolatdan emas. Shu ma'noda jahondagi mashhur bastakorlar: Betxoven, Mosart, Bax, zamondosh bastakorlar yaratgan musiqa holat va kayfiyatga qarab insonga turlicha ta'sir qilishi aniqlangan. Ular bastalagan kuylar ezgulik va insonparvarlik ruhida bo'lgani uchun ham hanuz muxlislar tomonidan sevib tinglanadi. Hatto ba'zi mukammal kuylar umidbaxsh va hayotbaxshligi bilan farqlanib, tibbiyotda, tibbiy muassasalarda qo'llanayotgani hamda yaxshi samara berayotgani ham e'tiborga loyiqdir.

Zamondosh olimlar musiqani suv kristallariga qanday ta'sir qilishini o'rganib hayratlanarli natijaga kelganlaridan xabaringiz bordir. Suv unsurlari ichida o'z ta'sirchanligi bilan ajralib turadi va bu ba'zi sohalardagi eksperimentlarda qo'l kelmoqda. Rep, rok kabi taqir-tuqur musiqa sadosi ostida qolgan suv kristalli xunuk, g'alati, qo'rqinchli manzara kasb etgani holda, yoqimli, sokin musiqa sadosi

eshittirilgan suv kristalli o'zida xuddi sovuqda derazamiz oynasiga gul yasaydigan qor uchqunlaridek rang-barang naqshlar kolleksiyasini hadya etgani aniqlangan. Modomiki, suv shunday ta'sirchan ekan, yarmi suvdan va nozik to'qimalardan iborat inson qalbi, yosh, murg'ak farzandlarimiz yuragi musiqani eshitib qanday manzara kasb etarkin? Yoqimsiz musiqalar qalbga qanday naqsh solarkan? Ajdodlarimizdan, mehribon onalarimizdan latif allalarni tinglab kelgan yuraklar jarohatlanmaydimi? Yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim yoshlarning mumtoz musiqalarimizga pisandsizlik bilan qarab, g'arb estradasi mahsulotlariga moyilligi juda xatarlidir. Chunki, g'arbning quloqni batang qilib yangragan musiqasini eshitib, "bebbi bumer"larga ergashgan zamonaviy yoshlardan Vatanga, oilaga, millatga sadoqat ruhini kutib bo'lmaydi.

Agar adolat bilan kuzatsak, shunga amin bo'lamizki, mumtoz kuyni eshitganda asab tinchlanib, sarak-sarak bo'lib, boshlar qimirlagan bir holatda g'arb estradasi ohanglariga o'z-o'zidan oyoqlar harakatga keladi. Bosh bilan oyoqning farqi, ularning vazifasi yaxshi ma'lum. Shundan ham ayon bo'ladiki, kishining bosh yoki oyog'ining qimirlashidan qanday inson ekanligini aniqlab olish oson. Shunday kuzatuv usuli bilan o'rta asrlarda diniy ixtiloflar, kurashlar chog'ida musulmon mamlakatida musulmonlar orasiga kirib olgan missioner-ayg'oqchilar ushlab olingan.

Milliy musiqaning yoshlar dunyosidagi muhim ahamiyatlaridan yana biri, yoshlarni estetik madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda o'z o'rnini topishida barkamol avlodni gavdalandirishdadir. Ma'lumki, milliy musiqa inson qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi va bu iboralarni biz yuqoridagi fikrlarimizda aytib o'tganmiz. Demak, yoshlarning musiqiy madaniyatining yuksalishida uning badiiy idroki o'sadi va hissiyoti yanada boyib boradi. O'z o'rnida tahliliy xulosalarga kelar ekanmiz, yoshlardagi musiqaviy idrokni rivojlantirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini kerakli darajada o'rgatmay, qiziqitirmay turib, boy ma'naviy, jismoniy va axloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Yoshlarda milliy musiqaga qiziqishi ularning estetik madaniyatini yuksalishida kuchli ta'sir ko'rsatadi, o'ziga xos ko'nikma va estetik didning

shakllanishini ta'minlaydi. Milliy kuy va qo'shiqlar estetik va ma'naviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Bu tuyg'u kishiga uning butun hayoti davomida ta'sir o'tkazib, his-tuyg'u uyg'otadi, hayajonlantirib, harakatga chorlaydi. Musiqa kishini ilhomlantirib, uning qalbini to'lqinlantiradi, tetiklashtirib, kuch-quvvat bag'ishlaydi. Shu bilan birga, mungli yangragan kuy kishini g'am-g'ussaga, iztirobga soladi. Bu ko'p jihatdan tinglovchining musiqani qay darajada anglab eshitishiga, uning tinglash madaniyati va qobiliyatiga, estetik didiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, musiqani tushunib eshitishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular insonning har tomonlama rivojlanishi, jumladan, estetik tarbiya vazifalari bilan bog'liq bo'lgan umumiy maqsadlar bilan belgilanadi.

Milliy musiqa inson ichki dunyosi va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga bog'liq bo'lgan ta'sirini inobatga olganda, voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqiy asardan foydalanish muhim ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, musiqiy obrazlar shakllanishining asosiy manbayi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, bizni o'rab turgan dunyodagi go'zallikni idrok etishga bevosita bog'liq.

Qadim zamonlardan beri inson milliy musiqa madaniyatining asosi bo'lgan kuy va qo'shiqlar orqali yoki cholg'u sozlari ijrosida o'zi tinglagan qushlar ovozi, aks-sadolarini, suvlarning oqishini, hasharotlar navosini aks ettirish uchun harakat qilib kelgan. Milliy musiqa san'at sifatida insonning fikrlash va ifodalash hissiyotining asosi bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, u insonlar ichki dunyosi va tafakkur doirasiga ta'sir o'tkazib, yon-atrofdagi voqelikni emotsional idrok etadi va uni yana tiklash va o'zgarishiga yordam beradi. O'zining ilg'or emotsional ifodasini aks ettiradigan musiqa madaniyati inson hissiyotiga, dunyoqarashiga tafakkuriga ta'sir ko'rsatib, uni yangi marra va maqsad sari yo'llaydigan, atrof- muhitga bo'lgan qarashlarini o'zgartiradigan go'zal olamning sir-u asrorlarini jonlantiradi.

Estetik madaniyatni yuksaltirish jarayonida bir qator muhim vazifalar amalga oshiriladi. Emotsional qarash orqali musiqani shakllantirish, Insonga xos bo'lgan kechinmalarni ifoda etishga qodir bo'lgan musiqa madaniyati tinglovchilarni birlashtiradi va ular o'rtasida o'ziga xos muomala vositasi vazifasini bajaradi. Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, "qo'shiq bir necha ayrim

hissiyotlarni bir kuchli hissiyotga va bir necha qalblarni bitta kuchli his qiluvchi qalbga birlashtirishi mumkin. Agar o'smirni musiqa, qo'shiqni tinglayotganda, raqs ijro etilayotganda kuzatib turilsa, uning mimikasi, holati, harakati qanday o'zgarishiga osongina ishonch hosil qilish mumkin. O'smir umumiy kayfiyatini ta'riflashda xato qilishi, to'g'rirog'i uni anglatish uchun kerakli so'zlar topa olmasligi mumkin, biroq uning butun xatti-harakati uni asar qanchalik qamrab olganini va o'z hissiyotini ifoda etishni istashini aytib turadi".

Estetik madaniyat axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalashga, o'z yaqinlariga, o'z xalqiga va shu xalqning qahramonlariga xayrixohlik uyg'otishga yordam beradi. Estetik madaniyat yoshlarning fikrlarini va hissiyotini rivojlantiradi, taassurotlarini boyitib boradi. Bu vazifalar yoshlarni o'zlarining yoshlariga mos keluvchi asarlar bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Estetik madaniyat asosini kishilar hayoti, hodisalarni aks ettiruvchi cholg'u pyesa va qo'shiqlar tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, musiqa madaniyati o'zining ijtimoiy rivojlanishida taraqqiy etuvchi ifoda vositalari yangilanib boradi va bu jarayonda yoshlarning musiqani to'g'ri idrok etishga tayyorlaydigan asarlardan o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yoshlarning estetik madaniyatini yuksaltirish uchun musiqiy faoliyatning har xil turlarida qatnashtirish maqsadga muvofiqdir.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismiga ijrochilik (musiqa asboblarni chalish qo'shiq aytish, o'yin – inssenirovka), musiqani idrok etish musiqaga oid bilimlari, musiqa ijodi kabilar kiradi. Bu vazifalarni bajarish uchun musiqa asarlariga qo'yiladigan asosiy talab – yuksak badiiylik va soddalikka rioya qilingan taqdirdagina hal qilinishi mumkin. Ritmik harakatlar (fortepiano va vokal)ga mo'ljallangan asarlar dinamikligi, xarakterliligi, aniq strukturasi bilan ajralib turadi. Musiqa faoliyatning har bir turi singari bilim doirasini kengaytiradi, qo'shimcha bilimlar egallashga yordam beradi.

Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda ularning umumiy musiqa qobiliyati, ijro qobiliyat, qo'shiq kuylash faoliyatlarini o'stirish qaratish lozim. Bunda yoshlar musiqa qobiliyatining sifat darajasi belgilab beriladi (oddiy

emotsiyadan boshlab, to ijodning namoyon bo'lishigacha), bu esa o'z navbatida yoshlarning individual moyilligi, aqliy qobiliyatlari va iroda kuchlariga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda ularning eng asosiysi vazifalari emotsional va eshitish komponentlaridir. Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda ijro intonatsiyalari, turli xarakterdagi cholg'u pyesalarga nisbatan emotsional ta'sirni tarbiyalashga e'tiborini qaratish lozimdir. Shu bilan birga, ularning musiqiy asarni tanlash, farqlash, qarama qarshi va o'xshash qismlarini qiyoslashga, tovush, ritm, dinamik o'zaro munosabatlarni bilishga o'rgatib, musiqa, kuylash qobiliyati, ritmni his qilish va shuningdek, ijrochilik qobiliyatlari o'stiriladi.

Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida yoshlardan ba'zilar kuylash yoki raqsga tushishni, musiqa asboblarni chalishni yoki musiqa tinglashni afzal ko'rishiga osongina ishonch hosil qilish mumkin. Bu doimo o'sib va takomillashib borishi kerak bo'lgan estetik madaniyatning xilma-xilligidan dalolat beradi. Musiqa obrazlari yoshlar hissiyotini qo'zg'aydi, uni musiqa nima haqida "hikoya qilayotganligi" ustida fikr yuritishga majbur qiladi. U tovushlarni, ular birikmasini go'zalligini, garmoniklikni idrok qilar ekan, bularning barchasini birorta real narsa bilan qiyoslashga intiladi va asta-sekin jaranglovchi olamning intonatsiya tabiatini tushunib yetadi: jo'shqin yoki sokin hikoya, uzuq-yuluq yoki ravon bayon, savollar va javoblar, xitoblarni anglashga erishadi. Badiiy obraz ancha tushunarli va konkret bo'lib boradi, musiqa ifodali vositalarining she'riy so'z (qo'shiqda), syujet (dasturli pyesada), harakat (dramalashtirilgan o'yin, raqsda) bilan birikishi tufayli kuchli taassurot qoldiradi. Xulosa qilib aytganda, musiqaning estetik qonuniyatlarini musiqiy tafakkur orqali emotsional ta'siri yoshlar badiiy musiqiy obrazi natijasida paydo bo'ladi va shu asosida estetik madaniyatning dastlabki elementlari yoshlarning estetik tafakkurida sodir bo'ladi.

Yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirish uchun ularning musiqiy faoliyatiga ijobiy munosabatini yo'naltirish kerak. Bu esa ularning mazkur sohada bilim va malakalarni egallashlarida yordam beradi. Har bir yosh yigit qizning ijodiy tasavvurlari musiqiy idrokni, obrazni boricha ifodalash, qo'shiq, kuy, o'yin, raqsga

qiziqish va ishtiyoqni o'stirishga yordam beradi. Bu yoshlar estetik madaniyatini yuksaltirishda muhim metodik talab bo'lib xizmat qiladi.

Estetik tarbiya yoshlar jamiyatda estetik madaniyatini egallab olishiga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakllar yordami bilan amalga oshiriladi. Jamiyatning estetik madaniyati deganda, insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. Yoshlar estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini ijodiy va faol, o'zlashtirishi bilan hosil bo'ladi. Insonning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, yoshlar ayrim sifatlarining o'zaro ta'siri natijasida ularning estetik madaniyati har doim o'zgarib turadi. Yoshlar estetik madaniyatining asosiy tarkibiy

qismlari – idrok, estetik ong, ehtiyoj, hissiyotlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. “Estetik did shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan murakkab hodisadir” [4, 80–98-b]. Estetik madaniyat esa estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanadi va shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladi. Estetik tuyg'u – insonning buyum yoki voqeaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishdir. Estetik tuyg'u yoshlarga mazkur buyumning shakli, rangi va mazmunini mushohada qilishga yordam beradi.

Musiqqa inson hissiyotlarining barcha rang-barang jilolanishlarini aks ettirishi mumkin. Musiqqa eng nozik kechinmalar, murakkab tuyg'ular, kayfiyatlarni ham ifoda eta oladi. Musiqqa vaqt qonuniyatlariga bo'ysunib, kechinmalarning o'zgarib turishlari, mavjlanishi va so'nishi jarayonlarini qamrab oladi. “Musiqqa madaniyati o'ta murakkab ijtimoiy tuyg'ularni, eng avvalo, hayotdagi so'zlashuv ohanglari yoki xatti-harakat vaznlari ko'rsatib beriladigan axloqiy- insoniy his-tuyg'ular, sevgi, nafrat, qo'rquv g'urur, estetik san'at yoxud tabiat nafosati, kulgili ulug'vorlik, fojiali, tuyg'ularni ifodalaydi” [4, 80–98-b].

Musiqaning kayfiyat faoliyatini ifodalashda imkoniyatlari katta. Insonning kayfiyati murakkab tuyg'ulardan tashkil topgan bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u – munosabatini belgilaydigan eng muhim jihatlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u qayg'urish

shodlanish, xayol surish, tushkunlik bardamlik va shunga o'xshagan ruhiy munosabatlarni xususiy va umumiy tarzda o'zaro mushtaraklikda bir-biriga singib ketgan holda ifodalaydi. O'zbek milliy musiqa madaniyati durdonasi bo'lgan "Shashmaqom" xalqning murakkab tarixi, zavq-shavqi, kechinmalari, orzu-umidlari qayg'u-hasratlari, shu qadar teran, nafis, chuqur, ehtirosli jozibali, ifoda etilganki, uni eshitgan kishi o'zi bilmagan holda shirin xayollar dunyosiga kirib ketadi.

Musiqa ohangdorlik ifodasining eng muhim vositasidir. Musiqaviy ohangdorlik insonning oddiy kundalik nutqi ohangiga o'xshaydi. Inson o'zining his-tuyg'u holatini atrofdagilarga nutqi ohangi vositasida bildiradi, gapirish ohangi ovozning balandligi, pastligi, tebranish, vazni orqali namoyon bo'ladi. Shuni aytish joizki, inson nutqi ohangining ulkan ifoda imkoniyatlari musiqaviy ohangiga tabiiy shart-sharoit yaratadi, unda ohang butunlay yangi badiiy ko'rinish oladi. Musiqada inson nutqi ohangi musiqa badiiy tilning asosi bo'lib, bastakorning voqelikka munosabatini musiqada aks ettirishda vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p asrlik tajriba nutq ohangi imkoniyatlari insoning musiqaviy sezgirligi va idrokliligi, musiqani idrok etish qobiliyatini vujudga keltiradi.

Musiqada ifodalilik asar tanasidagi qonini, qalbidagi jonini anglatadi. Kuy musiqa fikrini uning asosiy matnini aks ettiradi. Kuy bir ovozli (solo) va ko'p ovozli (polifoniya) ko'rinishlardagi mavjud bo'lib, sharq xalqlari musiqa madaniyatida bir ovozli kuy asosiy o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda esa musiqa san'atida ko'p ovozli asarlarga asosiy e'tibor qaratilayotganini kuzatyapmiz.

Globalashuv sharoitida axloqsizlik g'oyalarini targ'ib qiladigan, milliy mentalitetimiz, komil inson g'oyasi ruhiga to'g'ri kelmaydigan voqealar, shuningdek san'at asarlariga bo'lgan tanqidiy nuqtayi nazarni shakllantirish, milliy turmush tarzi estetikasini rivoj topishida, inson ma'naviyatini mazmunan boyitishda axloqiy va estetik madaniyat asosiy va zaruriy vosita sifatida ko'riladi. Bu esa milliy musiqasiz amalga oshmaydi. Zero, shaxsning kamol topishi, eng avvalo, unda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga asoslanadi. Shaxs estetik madaniyati, ularning o'zaro dialektik aloqadorligini jamiyat bilan qaror toptirishi, mustaqillikning ma'naviy mustahkamlanishini muhim shartlaridandir.

“Estetik madaniyatning o‘ziga xos dunyosiga kirgan insonlar, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon – moziydan sadolanish, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, ijodiyot degan ilohiy ne‘mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o‘zining milliy musiqiy qadriyatlari estetik madaniyati an‘analari bilan izohlanishining ham hikmati shundandir. Milliy musiqaning ilohiy yoki samoviy ekanligi ba’zi bir tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Insonlar bo‘lsa, o‘z estetik madaniyati darajasida uning ma’naviy boyliklarini shakllantirib, asrlar osha rivojlantirib kelganlar. Bu jarayonda har bir soha zamonlar yemirilishida charxlanib, mukammallashib yangidan yangi ijobiy munosabatlar negizida boyib, o‘z samarasini namoyon etib kelgan. Estetik madaniyatning azaliy qadriyatlaridan zamonaviylik mezonlariga bo‘lgan jarayonlarni faqatgina kuylarda yangragan takrorlanmas asarlardangina anglash mumkin. Bu esa ko‘lami keng murakkab jarayon, ularni tasavvur ham qilish qiyin. Hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug‘orilib kelingan har bir xalqning o‘z madaniyat estetikasi, ma’naviyati bo‘lib, buning negizida ikki katta tafakkur oqimi mavjud bo‘lib ularning biri-xalq ommaviy milliy musiqasi bo‘lsa, ikkinchisi esa estetik tafakkurning individual ijodiy faoliyatidir” [4, 80–98-b].

Xulosa qilganda, milliy musiqa san’atining saqlanib kelgan azaliy an‘analari, qadriyatlarini o‘zbek san’ati uchun munosib hissa qo‘shgan olimlar va ular qoldirgan boy meros tufayli bugunga qadar milliy kuylarimiz saqlanib, sayqallanib kelayotganini guvohimiz va u butun bashariyatga ijodiy ta’sirini o‘tkazganligi fanda o‘z ifodasini topganidir. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida G‘arb madaniyatining o‘ziga xos kamol topganligini, hozirgi yoshlar estetik madaniyati ko‘lamidan ilg‘ab olish mushkul emas. Buning negizida musiqa san’ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajasida umumlashish bosqichlarini o‘tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini uyg‘unlashtirish hamda uni barcha xalq barobar qabul qilishi kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san’atining jozibador, go‘zallashuviga olib kelganligini ta’kidlab o‘tish kerakdir. Natijada, G‘arb musiqa san’atiga intilish, uning musiqasiga, madaniyatiga ko‘r-ko‘rona ergashishlar kabi

holatlar yuzaga keladi. Har bir xalq o'zining milliy musiqa madaniyati bilan birgalikda, ularga yondashgan holda g'arbona musiqa ijodiyotini shakllantirishga urinadilar. Buning ilk bosqichlari taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo'q. Bizning vazifamiz O'zbekistonda yoshlarining estetik madaniyatini yuksaltirishda milliy musiqani rivojlantirish orqali oliy maqsadlarga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sher A., Xusanov B., Umarov E. *Estetika*. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati, 2010. – 92-102-b.
2. Махмудов Т. *Эстетика и духовные ценности*. – Тошкент: ГРИПК. Шарк, 1993. – с-278.
3. Шиллер Ф. *Собрание сочинений*. – Т-6. Москва: Государственное изд. худ. Лит, 1957. – с-253.
4. Karimova D. *Musiqiy pedagogik mahorat asoslari*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 80-98-b.